

ZAMONAVIY XIRURGIK ASBOBLAR. DEZINFEKSIYA UCHUN QO'LLANILADIGAN ASOSIY KIMYOVIY VOSITALAR

Davlatova Aziza

Toshkent tibbiyot akademiyasi.

2-davolash fakulteti.3-kurs

(325-guruh) talabasi

Davlatovaaziza10@gmail.com

Kirish: Tibbiy amaliyotlarda xavfsizlik va samaradorlikni ta'minlashda xirurgik asboblarning gigiyenasini muhim rol o'ynaydi. Xirurgik asboblarning orqali infeksiyalarni tarqalishi katta xavf tug'diradi, shu sababli ularni to'g'ri tozalash va dezinfeksiya qilish tibbiyot muassasalarining asosiy talablaridan biridir. Zamonaviy jarrohlik asboblari yangi texnologiyalar yordamida yaratilgan bo'lib, ular aniq va xavfsiz jarrohlik amaliyotlarini o'tkazishga yordam beradi. Shu bilan birga, asboblarni dezinfeksiya qilishda kimyoviy vositalarning roli katta. Bu vositalar mikroorganizmlarni yo'q qilish va infeksiyalar xavfini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy xirurgik asboblarning va ularni dezinfeksiya qilishda qo'llaniladigan asosiy kimyoviy vositalar tahlil qilinadi. Xirurgik asboblarning gigiyenasini ta'minlash tibbiy xavfsizlikning asosiy qismi hisoblanadi. Asboblarni noto'g'ri tozalash va dezinfeksiya qilish infeksiyalar xavfini oshiradi, bu esa bemorlarning sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Maqolada glutaraldegid, formaldegid, peratsetik kislota kabi keng qo'llaniladigan dezinfeksiya vositalarining xususiyatlari va ularning mikroblarga qarshi samaradorligi ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, zamonaviy jarrohlik asboblari, ularning qo'llanilish sohalari va dezinfeksiya jarayonidagi ahamiyati ham tahlil qilinadi.

Kalit So'zlar: xirurgik asboblarning, dezinfeksiya, sterilizatsiya, glutaraldegid, peratsetik kislota, formaldegid, tibbiy gigiyena, mikroblarga qarshi vositalar, jarrohlik xavfsizligi.

Zamonaviy xirurgik asboblarning

Zamonaviy jarrohlikda qo'llaniladigan asboblarning bemor xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xirurgik amaliyotlar paytida ishlatiladigan asboblarning aniq va samarali bo'lishi kerak, chunki ular operatsiya jarayonida to'g'ridan-to'g'ri tana to'qimalari bilan muloqot qiladi. Skalpel, endoskop, elektrokoagulyator, va laparoskopik asboblarning tibbiyotda keng qo'llaniladigan zamonaviy asboblarga misoldir. Masalan, endoskoplar yuqori aniqlikdagi kameralar bilan jihozlangan bo'lib, ular bemorning ichki organlarini invaziv bo'lmagan tarzda kuzatish imkonini beradi.

Laparoskopik asboblari esa minimal invaziv jarrohlik amaliyotlari uchun qo'llanilib, an'anaviy jarrohlik usullari bilan solishtirganda bemorga kamroq zarar yetkazadi .

Xirurgik asboblarni dezinfektsiya qilish muammosi

Zamonaviy tibbiyotda jarrohlik asboblari samarali dezinfektsiya qilish zarurati doimo dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Asboblari to'g'ri tozalanmasa, infeksiyalarni yuqtirish xavfi ortadi. Rutala va Weber [1] ning tadqiqotlariga ko'ra, dezinfektsiya va sterilizatsiya amaliyotlari jarrohlik xonalari va tibbiy asboblarning gigiyenik holatini ta'minlash uchun muhim vositalardir. Ular bu jarayonlarni nafaqat tibbiy xodimlarning xavfsizligi, balki bemorlar salomatligi uchun ham zarur deb hisoblashadi .

Xirurgik asboblarni samarali dezinfektsiya qilish uchun turli xil kimyoviy vositalar qo'llaniladi. Ushbu vositalarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, mikroblar, viruslar va zamburug'larga qarshi kurashishda samaradorligi bilan ajralib turadi. Quyida eng keng tarqalgan dezinfektsiya vositalari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Dezinfektsiya uchun qo'llaniladigan asosiy kimyoviy vositalar

1. Glutaraldegid – Keng spektrli mikroblar va viruslarga qarshi kuchli dezinfektsiyalovchi modda. U endoskoplar va boshqa jarrohlik asboblari sterilizatsiya qilishda keng qo'llaniladi. McDonnell va Russell [2] ning ta'kidlashicha, glutaraldegid mikroblarni yo'q qilishda samarali, lekin uzoq muddat foydalanishda allergik reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin .

2. Formaldegid – Formaldegid kuchli antimikrobik xususiyatga ega bo'lib, u bakteriyalar va zamburug'larga qarshi ishlatiladi. Biroq, Sattar [3] ning tadqiqotlariga ko'ra, formaldegidning uzoq muddatli ta'siri odam salomatligiga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun formaldegidni dezinfektsiyalashda ehtiyotkorlik bilan ishlatish tavsiya etiladi .

3. Peratsetik kislota – Tezkor dezinfektsiyaga yordam beradi va ekologik xavfsiz bo'lgani uchun u ko'pincha tibbiy asboblarni sterilizatsiya qilishda qo'llaniladi. Peratsetik kislota mikroblarga qarshi yuqori samaradorlikka ega bo'lib, u asboblarni tezda dezinfektsiya qilish imkonini beradi .

4. Etanol va izopropanol – Bu moddalar kuchli antimikrobik xususiyatlarga ega bo'lib, yuqori konsentratsiyalarda mikroorganizmlarni tezda yo'q qiladi. McDonnellning fikricha, bu moddalar asboblarni yuzasidagi mikroblarni yo'q qilishda samarador hisoblanadi va ko'p hollarda xavfsiz hisoblanadi .

5. Natriy gipoxlorit – Dezinfektsiya uchun eng ko'p ishlatiladigan vositalardan biri bo'lib, u bakteriyalar, viruslar va zamburug'larga qarshi samarali hisoblanadi. Bu kimyoviy vosita jarrohlik asboblari sterilizatsiya qilishda keng qo'llaniladi .

Xulosa qilib aytganda, xirurgik asboblarni dezinfektsiya qilishda kimyoviy vositalarning o'zini juda katta. Buning uchun to'g'ri vosita tanlash, uni to'g'ri qo'llash

va xavfsizlik choralariga rioya qilish juda muhimdir. Ular yordamida infektsiyalarning oldini olish va jarrohlik amaliyotlarini muvaffaqiyatli o'tkazish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. McDonnell, G., & Russell, A. D. (1999). "Antiseptics and Disinfectants: Activity, Action, and Resistance". *Clinical Microbiology Reviews*, 12(1), 147-179.
2. Rutala, W.A., Weber, D. J. (2016). "Disinfection and Sterilization in Health Care Facilities: An Overview and Current Issues". *American Journal of Infection Control*, 44(5), S1–S6.
3. Sattar, S. A. (2010). "Promoting Appropriate Use of Disinfectants in Hospitals: Implications for Microbial Resistance". *Canadian Journal of Infectious Diseases and Medical Microbiology*, 21(1), 20-25